

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

МАЖБУРИЙ
НУСХАЛАР

7-SINFDA
“IQTISODIYOT SABOQLARI”
kursini o‘qitish bo‘yicha
umumiyl tavsiyalar

*Respublika ta'lif markazi qoshidagi
“Iqtisodiy bilimlar” ilmiy metodik kengashi tomonidan
foydalanishga tavsiya etilgan*

TOSHKENT
“YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE”

2007

KIRISH

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, bozor iqtisodiyoti tomon yuz tutishi, buyuk kelajakni yaratuvchi barkamol avlodni, yangi zamon va yangi jamiyat kishisini tarbiyalashdek mas'uliyatli, mashaqqatli va ayni paytda o'ta dolzarb bo'lgan vazifani keltirib chiqardi. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi bu sohadagi qilinadigan ishlar ko'laminu va yo'nalishlarini belgilabgina qolmasdan, ta'lim sohasida o'ziga xos burilish yasadi. Milliy umumiyligi ta'limni xalqaro darajaga olib chiqish, uni jahon andozalariga mos qilib, tubdan isloh qilish — mamlakatimiz oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab qo'yildi.

Mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati o'sishi, davlatimizning xalqaro miqyosdagagi nufuzi oshishi iqtisodiy ta'limni ham xalqaro standartlarga moslashni, iqtisodiy fanlar o'qitilishini kichik yoshlardanoq boshlashni, iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarning o'quvchilar tomonidan chuqurroq o'zlashtirilishiga shart-sharoitlar yaratilishini taqozo qilmoqda.

Shularni inobatga olib, iqtisodiy ta'limni keskin rivojlantirish va iqtisodiy ta'limni mamlakatimiz ta'lim tizimidagi ahamiyati va mavqeini mustahkamlash maqsadida 2007-2008 o'quv yili mamlakatimizda "Ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'lim va moliyaviy savodxonlik samaradorligini oshirish" o'quv yili deb nomlandi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Respublika Ta'lim markazi tomonidan umumiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Mazkur qo'llanmada shu tavsiyanomada ko'zda tutilgan, umumta'lim maktablarida iqtisodiy bilimlarni boshqa fanlar bilan integratsiyalash asosida berishning rejalarini va dars ishlanchimalari bo'yicha qisqacha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

IQTISODIY BILIM ASOSLARI FANINING MAKTAB O'QUV REJASIDAGI O'RNI

“Iqtisodiy bilim asoslari” fani muktabda o'qitiladigan barcha fanlarning iqtisodiy bilimlar asosida uyg'unlashuviga tayanadi. Iqtisodiy tafakkur iqtisodiy bilimlarni boshlang'ich sinflarda “Atrofimizdagi olam”, “O'qish”, “Ona tili”, “Mehnat”, “Matematika”, “Odobnama” fanlari tarkibida, yuqori sinflarda “Matematika”, “Geografiya”, “Tarix”, “Fizika”, “Adabiyot”, “Konstitutsiya olamiga sayohat” va boshqa fanlar tarkibida berilishi asosida ham shakllanadi. Muktab o'quv fanlari dasturlariga ayrim iqtisodiy tushunchalarning kiritilishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida o'quvchilarni hayotga va kelajakdagи mehnat faoliyatiga tayyorlashga hamda iqtisodiy fanlarni o'rganish jarayonini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Iqtisodiy bilimlar boshlang'ich sinflarda boshqa fanlar tarkibida 10 soatlik yuklama asosida, 5–6-sinflarda boshqa fanlar tarkibida yillik 17 soatlik yuklama asosida, 7-sinfda muktab komponentidagi soatlar hisobidan 17 soatlik yuklama asosida, 8–9-sinflarda asosiy davlat komponentidagi soatlar hisobidan yillik 34 soat yuklama asosida berilishi 2007–2008 o'quv yilidan boshlab joriy qilinadi. Bu o'quv rejaları iqtisodiy bilimlarning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilish darajasini ta'minlaydi. Bu darajalar ham shartli ravishda uchga bo'lingan:

1. Minimal daraja — “Iqtisodiy bilim asoslari” fani bo'yicha har bir o'quvchi o'zlashtirishi zarur bo'lgan tayanch tushunchalar. Bu daraja bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish uchun poydevor vazifasini o'taydi va u barcha uchun majburiydir.

2. Asosiy daraja — umumiy ta'lim doirasida minimal darajaga nisbatan to'liqroq va chuqurroq ma'lumot berishni nazarda tutadigan bilim hajmi.

3. Ixtisoslashtirilgan daraja — “Iqtisodiy bilim asoslari” fani bo'yicha beriladigan bilimlarga qiziqadigan, bu bilimlarni muvaffaqiyatli tarzda chuqur o'zlashtirishga qodir bo'lgan o'quvchilarga mo'ljallangan maxsus bilim hajmi.

7-sinfda IQTISODIY TA'LIM

7-sinfda iqtisodiy bilim ko'nikma va malakalar muktab komponentidagi soatlar hisobidan 17 soatlik maxsus kurs sifatida o'qitish orqali berilishi 2007–2008 o'qiv yilidan boshlab joriy qilindi.

Xalq ta'limi vazirligi, Respublika Ta'lim markazi qoshidagi "Iqtisodiy bilimlar" ilmiy-metodik kengashi tomonidan tasdiqlangan 17 soatlik "Iqtisodiyot saboqlari" maxsus kursining dasturini keltiramiz.

7-sinfda "Iqtisodiyot saboqlari" maxsus kursi bo'yicha dastur

T/r	Mavzular	Soat
I. Bozor iqtisodiyoti (3 soat)		
1.	Nima? Qanday? Kim uchun? – savollari nimani anglatadi? Iqtisodiy tizimlar. An'anaviy, bozor va markazlashgan rejali iqtisodiyot. Ularning o'zaro farqi va o'ziga xos xususiyatlari.	1
2.	Bozor iqtisodiyotining xususiyatlari: erkin iqtisodiy faoliyat, xususiy mulkchilik, raqobat, iqtisodiy mansafatdorlik va foyda olishga bo'lgan intilish, monopoliyani rad etish, erkin narxlar. Bozor iqtisodiyotiga o'tish. Aralash iqtisodiyot.	1
3.	O'zbekiston bozor iqtisodiyoti sari. O'zbekiston Respublikasi bozor iqtisodiyotiga o'tishining besh tamoyili: Iqtisodiyotning siyosatdan ustivorligi; Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlat – bosh islohotchi; Qonunlar va ularga rioya qilishning shartligi; Faol ijtimoiy siyosat yuritish; Bozor iqtisodiyotiga sekin-asta, bosqichma-bosqich o'tish. Bozor iqtisodiyotiga o'tish islohotlari.	1
II. Talab va taklif (4 soat)		
4.	Talab. Talab qonuni.	1
5.	Taklif. Taklif qonuni.	1
6.	Talab va taklif chiziqlari.	1
7.	Muvozanat (bozor) narx va muvozanat miqdor. To'yingan va taqchil bozor.	1

III. Tadbirkorlik (6 soat)

8.	Tadbirkorlik nima? Tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari. Tadbirkorlikning faoliyat turlari: ishlab chiqarish; moliyaviy tadbirdorlik; tijorat; vositachilik; sug'urta.	1
9.	Tadbirkorlikni tashkil qilish: xususiy firmalar; shirkatlar; ma'suliyyati cheklangan va cheklaňmagan jamiyatlar; aktsiyadorlik jamiyatasi; ochiq va yopiq aktsiyadorlar jamiyatasi.	1
10.	Biznes nijmadan boshlanadi? Biznes-g'oya va biznes-reja.	1
11.	Firmanın sarf-xarajatlari. Asosiy vositalar. Amortizatsiya.	1
12.	Aylanma mablag'lar. Buxgalteriya balansi. Aktiv va passiv.	1
13.	Firma faoliyatining tahlili. Sof foyda. Soliqlar. Rentabellik.	1

IV. Davlat va iqtisodiyot (4 soat)

14.	Davlatning iqtisodiyotda tutgan o'rni. Davlat byudjeti. Davlat byudjetining daromad va xarajat qismalari va ularni tashkil etuvchilar.	1
15.	Yalpi milliy mahsulot. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM miqdori.	1
16.	Pul muomalasi. Pul massasi va aylanish tezligi. Inflyatsiya. Pul muomalasi qonuni.	1
17.	Tashqi iqtisodiy aloqalar. Eksport va import. Valyuta. Valyuta kursi. To'lov balansi. O'zbekiston Jahon bozorida.	1

JAMI: **17**

"IQTISODIYOT SABOQLARI" O'QUV QO'LLANMASIDAN FOYDALANISH BO'YICHA UMUMIY TAVSIYALAR

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi ilmiy-metodik kengashi "Iqtisodiyot saboqlari" kursini E. Sarigov va B. Haydarovlar tomonidan yaratilgan, shu nomdagi o'quv va uslubiy qo'llanmalar asosida o'qitishni tavsiya qilgan. Shuning uchun bu qo'llanmaning umumiy tuzilishi, undan darslarda foydalananish kabi masalalar bo'yicha o'qituvchilar uchun umumiy tavsiyalar keltiramiz.

"Iqtisodiyot saboqlari" o'quv qo'llanmasida keltirilgan ma'lumotlar shu yoshdag'i maktab o'quvchilariga mos holda bu ma'lumotlarni izohlovchi, oson tushunishga yordam beruvchi, o'quvchilarni mavzuga jalb qiluvchi rang-barang rasmlar bilan bezatilgan.

Har bir mavzuda iqtisodiy tushunchalar, atamalar, iqtisodiy faoliyatlar va jarayonlar sodda gaplardan tuzilgan matnlar, topshiriqlar va masalalar yordamida yoritilgan. Asosiy tushunchalar qiziqarli hikoyalar yordamida berilgan. Shu bilan bir qatorda har bir hikoyadan keyin mustahkamlash, iqtisodiy atamalarga ko'nikma hosil qilish uchun savollar, masalalar va topshiriqlar berilgan.

Ayrim mavzularda boshqotirma, krossvord va rebuslar, mustahkamlash uchun hisoblashlarga oid matematik masalalar, turli topshiriqlar berilgan.

Umuman aytganda, qo'llanmadagi materiallar — yaxlit, bir-biri bilan uzviy bog'langan, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan. Shu bilan bir qatorda qo'llanma dastlabkl'iqtisodiy saboqlar bo'yicha qomusiy xarakterga ega bo'lib, o'quvchilar undan mustaqil ravishda qo'shimcha ma'lumot va bilimlar olishda foydalaniishlari mumkin.

Ravshanki, qo'llanmada keltirilgan materiallar hajmi ko'pligi bois, ularni rejada ajratilgan 17 soatlik darslar mobaynida to'liq o'qitishning iloji yo'q. Ushbu tavsiyanomaning oxirgi qismida 17 soatlik dars yuklamasi kursini o'quv qo'llanma va o'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanmalar (III qism) asosida yoritish uchun batasil ko'rsatmalar berilgan. Qo'llanmadagi boshqa (ko'rsatmada ko'zda tutilmagan) mavzular, topshiriqlar va masalalardan sharoitdan kelib chiqqan holda turli darslarda qo'shimcha material sisatida, uy vazifalari berish uchun foydalananish mumkin.

Qo'llanmaning har bir bo'limi oxirida takrorlash uchun turli topshiriqlar berilgan.

Qo'llanmadagi mavzularni boshqa fanlar tarkibida o'qitishda mavzularning qo'llanmadagi uzviyigini saqlashga harakat qilish lozim.

Qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishida yuqori sinf o'quvchilar uchun yaratilgan kitoblar orasida "qaldirg'och"lardan biri bo'lganligi bois, unda ayrim uslubiy kamchiliklar bo'lishi mumkin. Bu haqda o'z fikrlaringiz va takliflaringizni bildirsangiz sizdan bag'oyat minnatdor bo'lar edik.

7-sinf o'quvchilari o'zlashtirishlari lozim bo'lgan minimal daraja:

iqtisodiy tizimlar, ularning farqi; bozor iqtisodiyoti, raqobat, monopoliya, erkin narx, aralash iqtisodiyot;

talab, talab qonuni, taklif, taklif qonuni, muvozanat (bozor) narx, muvozanat miqdor, to'yingan va taqchil bozor;

tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyatining turlari, xusussiy firma, shirkatlar, jamiyatlar, aksiyadorlik jamiyatni va uning turlari, biznes, biznes-go'ya, biznes-reja;

firma surf-xarajatlari, asosiy vositalar va amortizatsiya;

aylanma mablag'lar, buxgalteriya balansi, aktiv va passiv, sof foyda va soliqlar, rentabellik;

davlat iqtisodiyoti va byudjeti, byudjet daromadlari va xarajatlari, yalpi milliy mahsulot, pul muomalasi, pul massasi va aylanish tezligi, inflyatsiya, pul muomalasi qonuni, tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport va import, valyuta, valyuta kursi, to'lov balansi.

Kurs yakunida 7-sinf o'quvchilari bilishlari kerak:

iqtisodiy tizimlarni, bozor iqtisodiyotini, raqobatni, monopoliyani, talab va talab qonunini, taklif va taklif qonunini, muvozanat narxni, muvozanat miqdorni, to'yingan va taqchil bozorni, tadbirkorlikni, tadbirkorlik faoliyatining turlarini, xususiy firma faoliyatini, biznesni, firma surf-xarajatlarini, aylanma mablag'in, soliq va foyda, rentabellikni;

davlat iqtisodiyoti va byudjetini, yalpi milliy mahsulotni, pul muomalasini, pul massasini, aylanish tezligini, inflyatsiyani, valyuta, valyuta kursini, to'lov balansining nima ekanligini.

"Iqtisodiyot saboqlari" o'quv qo'llanmasi asosida olib boriladigan darslarning namunaviy ishlamalari o'qituvchilar uchun mo'ljallangan shu nomdag'i uslubiy qo'llanmada keltirilgan.

7-sinfda
“IQTISODIYOT SABOQLARI”
kursini o‘qitish bo‘yicha umumiyl tavsiyalar

Toshkent — “Yangiyul poligraph service” — 2007

Muharrir — *M. To‘ychiyev*

Texnik muharrir — *A. Kaybisheva*

Musahhih — *M. Isoqova*

Sahifalovchi — *O. Mamadaliyev*

Original-maketedan bosishga ruxsat etildi 25.08.2007.
Bichimi 60x84¹/16. «Tayms» garniturasi. Ofset bosma
usulda bosildi. Sharqli bosma tabog‘i 0.93. Nashr bosma
tabog‘i 1.0. Nusxasi 10000. Buyurtma N 58.

“Yangiyul poligraph service” MCHJ bosmaxonasida bosildi.
Yangiyo‘l sh., Samarqand ko‘chasi, 44.